SHAHODAT ISAXONOVA ASARLARIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TASNIFI

Erkaboyeva Feruza Muzaffar qizi
FarDU, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya
Maqolada Sh.Isaxonova asarlarida qo‘llangan frazeologik birliklarning leksik-semantik, struktur tasniflari bo‘yicha tahlillar bayon etilgan. Jahon tilshunoslarining bu sohada izlanishlari, shakllari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *leksik – semantik xususiyat, frazeologik butunlik, frazeologik qo‘shilma, frazeologik chatishma, so‘z birikmasi tipidagi frazeologik birlik, gap modelidagi frazeologik birlik.*

KIRISH

Til kishilarga axborot yetkazishi bilan birga ularga estetik zavq berish vazifasini bajaradi. Bu borada tilshunoslikning alohida sohasi deb qaraladigan frazeologiyaningo‘ziga xos o‘rni bor. Til taraqqiyotining dastlabki davrlarida paydo bo‘lib, davrning turli shakllarida alohida munosabat bilan baholangan iboralaro‘ziga xos shakllanish bosqichlariga ega. Aynan frazeologiya termini iste’molda ifodalanmagan bo‘lsa ham u haqidagi dastlabki qarashlar shakllangan.

Tilshunoslikni falsafa negizdao‘rgangan yunon mutafakkiri Arastu o‘zining “Poetika” asarida: “Ba’zi kishilar mahorat, ba’zilari malaka sababli yana ba’zilari tug‘ma iste’dodlari tufayli bo‘yoqlar va shakllar yordamida ko‘p narsalarningo‘xshashini yaxlitlab ifodalaydi[35]. Bundan ko‘rinib turibdiki, bundan bir necha asrlar avval ibora va u haqida turli qarashlar shakllangan.

Jahon tilshunosligida Amosova, N.Shanskiy, I.Ojegov, Kunin, V.Arxangelskiy, E.F.Polivanov, V.V.Vinogradov, L.Smit, V.Jukov, V.Teliya[36] kabi olimlaro‘z lingvistik qarashlarida frazeologik birliklarning yaxlit mazmun ifodalashi va paremiologik birliklar ichida alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tishgan. M.Yaxin, T.Xoxlova, A.Zinchenko, L.Maltseva, O.Potapova

ilmiy qarashlarida diniy frazeologik birliklar, ularning mazmun-mohiyati, ifodalanishi, struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari bayon etilgan.

O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, M.Husainov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, A.Rafiyev, M.Sodiqova, Q.Hakimov, Sh.Usmonova, M.Holiqova, K.Bozorboyev, B.Jo‘rayeva, Sh.Abdullayev, Sh.Almamatova, M.Vafoyeva[37], Sh. Ganiyeva Sh. Sultonova kabi olimlarning xizmatlari katta.

So‘z va iboralarni ma’lum bir arxisema asosida birlashtiruvchi xususiyat leksik-semantik xususiyat deb ataladi [38]. Bu xususiyatlar til sistemasida muayyan sema ifodalovchi birliklarningo‘zaro munosabati natijasida hosil bo‘ladi. Tilning har bir sath birliklari ma'lum integral belgi asosida umumiylikni hosil qiladi. Shu bilan birga til

[35] Arastu. Poetika. Toshkent, 2011.- 20-bet
[36] Сувонова Н. Фразеологиянинг систем-сатҳ бирлиги сифатидаги талқини. – Самарқанд,2008. 4-бет
[37] Ganiyeva Sh. Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi. fil.fan.diss.avtoreferat. – Toshkent, 2023. B-5
[38] Hojiyev A. O’zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent,

birliklari o‘rtasida o‘xshash nuqtalar mavjud bo‘ladi[39]. Ana shu o‘xshashlik frazaeologik birliklarning nominativ funksiyalarida, shu bilan birga struktur-semantik tuzilishida ham namoyon bo‘ladi. Frazeologik birlikning voqelikka nisbat beriladigan lug‘aviy mazmuni (nimanidir anglatishi, ifodalashi) frazeologik ma’no deyiladi[40].

Yaxlit va barqaror strukturaga egaligi, o‘ziga xos sema ifodalashi bilan tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklar tashqi va ichki strukturaga ega bo‘lib, ularning semantik imkoniyatlarini aniqroq belgilash, ularning matn doirasida uslubiy voqealanishini ifodalashda frazeologik birliklarning komponent tahlili alohida o‘rin egallaydi. Frazeologizmlarning semantik tasnifi deganda eng avvalo, frazemalarni tashkil etgan leksemalar va ular anglatgan yaxlit ma’no o‘rtasidagi aloqadorlik nazarda tutiladi. V.Vinogradov frazeologik birliklar uch jihatdan tasniflanadi:

1) frazeologik qo‘shilma;
2) frazeologik butunlik;
3) frazeologik chatishma.

Tarkibidagi bir leksema o‘zining leksik semasini ifodalab, keyingi lekema ko‘chma ma’no ifodalash uchun xizmat qilsa frazeologik qo‘shilma hisoblanadi. Tarixiy romanda qo‘llangan frazeologik qo‘shilmalarda semantik motivlanganlik, ya’ni bir qismiga aloqador ko‘chma ma’no sezilib turadi.

Amir Temurning Xoja Yusuf aytgan gapdan chiroyi ochilib, mamnunlik bilan bosh irg‘ayotganiga ko‘zi tushgach, dadillangani sezildi.[41]

Tarkibidagi so‘zning ma’nolari va grammatik jihati yaxlit umumiy ko‘chma ma’no ifodalasa, frazeologik butunlik deb ataladi. Bunday butunliklarda asosan metafora orqali, ba’zan metanimiya, qiyoslash, ramziylik orqali ma’no ko‘chishi sezilib turadi.

Shahodat Isaxonova tarixiy asarlarida frazeologik butunlik ko‘plab uchraydi. Yozuvchining tarixiy sharoit, voqealar va tarixiy shaxslar siymosini ta’riflashdagi ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Do‘ngsaroyning etagidan boshlangan chodirlar atrofida aylanib yurgan navkarlarning isinish uchun yoqilgan gulxanlari lopillar, hammayoq suv quygandek jimjit edi.[42]

Suv quygandek jimjit frazemasida suv-jimjit leksemalari yonma-yon qo‘llangan bo‘lib, ikki leksemada ham tinchlik semasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarkibidagi har bir leksema alohida-alohida ma’no ifodalasa ham, ular birikkanda yaxlit mazmun kasb etadi. Frazeologizmlar bevosita tarjima qilinganda bu turdagi asarlar qiyinchilk keltirib chiqaradi.

Tarkibidagi leksemaning ma’nolari bilan ibora ifoda etgan ma’no o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik sezilmasa, frazeologik chatishma deb ataladi.[43] Ma’no bilan frazeologizmni tashkil etgan leksemalar o‘rtasida bog‘liqlik sezilmaydi. Arxaik

[39] Ganiyeva Sh. Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi. – Farg‘ona, 2023
[40] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. – Toshkent, 2009
[41] Isaxonova Sh. Turon malikasi. – Toshkent, 2014. B-23
[42] Isaxonova Sh. Bibixonim – Toshkent, 2011. B-154
[43] Abdulazizov A. O‘zbek tilida frazeologik birliklar: tahlil va tasnif. -Toshkent, 2010

holatdagi yoki tarixan qotib qolgan eskirgan grammatik shakllarni o‘z ichiga oladi. Frazeologizmlarda asosan bunday chatishmalar ko‘p uchraydi va asosan tarixiy asarlarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, qo‘lidan kelmoq, qo‘y og‘zidan cho‘p olmaslik, tegirmonga tushsa butun chiqmoq kabi frazeologizmlarida yaxlitlit yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu bo‘layotgan voqealarni ko‘rib, Bibixonimning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi. [44] Ibora tarkibida qo‘llangan leksemalar asl ma’no “hayratlanmoq ” bilan leksik ma’no jihatdan aloqasi yo‘q, ammo ana shu komponentlarning yaxlitligi frazeologik chatishmalar yuzagaa kelishida bosh omil sifatida ifodalanadi.

Tilshunos olima N.N.Amosova frazeologizmlarning konteksdagi o‘rni, barqarorligi, yaxlitligi haqida umumiy xulosalar berib, ularni struktur jihatdan tasnifladi.

Frazeologizmlar struktur nuqtayi nazardan tilshunoslikda leksemaga teng bo‘lsa ham, shaklan so‘z birikmasi va gap ko‘rinishda bo‘ladi. Ulardagi struktur xususiyatlar asosan:

1.So‘z birikmasi modelida bo‘ladi. Frazeologizmlarning bunday shakli modellashtirishda so‘z birikmasi bilan semantik ko‘rinishda omonim holatda uchraydiganlari ajratiladi. Ko‘zini olib qochmoq, burnini suqmoq, o‘zini bosmoq, boshidan svuq suv quygandek shaklda namoyon bo‘ladi.

Shahodat Isaxonova tarixiy asarlarida ham ana shu ko‘rinishdagi frazemlaar ko‘plab uchraydi.

Yoz chillasi chiqishiga bir hafta qolgan, choshgohdan so‘ng tandir kabi bir xil purkaydigan saraton, daraxtlar tagida jon saqlayotgan ajriqlarni ham sarg‘aytirib, o‘z otashida kuydirmoqda edi.[45]

Buning ustiga o‘zimiz ham qovun tushirdik[46]

Jon saqlayotgan, qovun tushirmoq birikmalari so‘z birikmasi hisoblanadi.

2. Gap modelidagi frazeologik birliklar. Predikativlikka asoslangan hukm ifodalovchi ya’ni tugallangan ohang bilan aytilgan frazeologik birliklar alohida ajralib turadi. Ko‘ngli g‘ashlanmoq, quruq qolmoq, nari borib beri kelmoq, paymonasi to‘lmoq kabi hukm ifodalashi, gap shaklidagi ko‘rinishining mavjudligi bilan ajralib turadi. Frazeologik birliklarning gap shaklida bo‘lishi yaxlitligi, tarkibidagi leksemalarning umumiy sema bilan aloqador emasligida namoyon bo‘ladi. Yaxlit, umumiy ko‘chma ma’nodagi leksemalar bu holatda gap modelida qurilganligi bilan diqqatga sazovor.

Sohibqiron hayratda lol, g‘azabdan tosh qotdi.[47]

3.Yig‘iq iboralar – frazemaning gapga teng kelishi nazarda tutiladi.

4. Yoyiq iboralar - frazeologik birliklarning gap bo‘laklari bilan kengaygan tiplari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish o‘rinliki, frazeologizm hodisasi til taraqqiyotining muhim, ajralmas qismi sifatida xalq tafakkuri va ma’naviy kamolotini namoyon etishda muhimo‘rin tutadi. Ularning alohida soha sifatidao‘rganilishi, qardosh va qardosh

[44] Isaxonova.” Turon malikasi”. Toshkent, 2014. 25-bet
[45] Isaxonova Sh. Bibixonim. – Toshkent, 2011. B-3
[46] Isaxonova Sh. Bibixonim. – Toshkent, 2011. B-88
[47] Isaxonova.” Turon malikasi”. Toshkent, 2014. 25-bet

bo‘lmagan tillar bilan umumiy va xususiy jihatdan differensiyalashuvi frazeologizmlarno‘rganish yanada muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatadi. Tilning yangi qirralarini ifodalashda, stilistik bo‘yoqdorligini ko‘rsatishda ularningo‘rni katta ekanligi diqqatga sazovor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arastu. Poetika. Toshkent, 2011- 20-bet
2. Сувонова Н. Фразеологиянинг систем-сатҳ бирлиги сифатидаги талқини. – Самарқанд, 2008. 4-бет
3. Ganiyeva Sh. Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi. fil.fan.diss.avtoreferat. – Toshkent, 2023. B-5
4. Ganiyeva Sh. Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi. – Farg‘ona, 2023
5. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent,
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2009
7. Isaxonova Sh. Turon malikasi. – Toshkent, 2014. B-23
8. Isaxonova Sh. Bibixonim – Toshkent, 2011. B-154